



Karolinglar sulolasi davrida Franklar imperiyasi

Salimova Sitora

Toshkent davlat Pedagogika universiteti

Tarix fakulteti tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Frank davlati — ilk o'rta asrlarda G'arbiy Yevropadagi davlat (V asr oxiri —843). V asr oxirida G'arbiy Rim imperiyasining Galliya viloyatini Xlodvig I rahbarligidagi franklar tomonidan bosib olinishi jarayonida vujudga kelgan. Buyuk Karlning harbiy yurishlari natijasida o'z tarkibiga G'arbiy Yevropaning deyarli butun qismi va Markaziy Yevropaning bir qismini kiritgan. Unda merovinglar 486-751 va karolinglar 751-843 sulolalari hukmdorlik qilishgan.

Kalit so'zlar: karolinglar sulolasi asoschisi, buyuk Karl, davlat boshqaruvi, madaniyat.

Pipin pakana: sulola asoschisi Pipin kichik (pakana) hisoblanib, 751-yildan 768-yil vafotigacha franklar qiroli bo'lgan. U shoh bo'lgan birinchi karoling edi. Pippin frank shahzodasi Charlz Martel va uning rafiqasi Rotrudning o'g'li hisoblanadi. 741-yilda otasining o'rniga Saroy meri lavozimini egallagan Pipin o'zining akasi Karloman bilan birgalikda Fransiyada hukmronlik qilgan. Akasi Karloman 747-yilda vafot etganidan so'ng, Pipin franklarning yagona hukmdori bo'ldi. Pippinning qirol sifatidagi birinchi yirik harakati Romanus dukatusiga aylangan Lombard qiroli Aistulfga qarshi urush boshlash bo'lgan edi. Ponteonda Papa Stiven II bilan uchrashuvdan so'ng, Pippin Lombard qirolini cherkovdan tortib olingan mulkni qaytarishga majbur qildi. U Ravenna va Pentapolisga ega



bo'lgan papalikni tasdiqladi, bu „Pippin xayriya“ deb atalmish, bu orqali Papa davlatlari tashkil etilgan va papalikning vaqtinchalik hukmronligi rasman boshlangan. Taxminan 752-yilda u diqqatini Septimaniyaga qaratdi. Yangi qirol Rona vodiysi bo'ylab harbiy ekspeditsiyada janubga yo'l oldi va sharqiy Septimaniyaning (ya'ni) bo'ysunishini oldi. Nimes, Magelone, Beziers va Agde) graf Ansemundning sodiqligini ta'minlaganidan keyin. Frank qirol Septimaniyadagi asosiy Umayyad qal'asi bo'lgan Narbonnaga sarmoya kiritishni davom ettirdi, ammo yetti yil o'tgach, 759-yilda ular Ispaniyaga haydab yuborilgunga qadar uni Iberiyalik musulmonlardan tortib ololmadi. Pippin 768-yilda 54 yoshida kampaniyada vafot etdi. U zamonaviy Parijdagi Sankt-Denis bazilikasida dafn etilgan. Uning rafiqasi Bertrada ham 783-yilda u yerda dafn etilgan.

Buyuk Karl: Buyuk Karl 742 yili tug'ilgan u sulola asoschisi Pipin Pakananing o'g'li bo'lib, Franklar qirolligini 46 yil boshqargan. Karl (768-814) hukmronlik qilgan. Buyuk nomi ko'plab harbiy yurish qilganligi va zafar quchganligi, yirik saltanat tuzganligi, yangi qonunlar, madaniyat va maorifga asos solganligi uchun berilgan. Karl so'zidan qirol unvoni kelib chiqqan. Karl faoliyati davomida 30dan ortiq harbiy yurishlar amalga oshirgan. Uning dastlabki harbiy yurushi germanlarning langobard qabilasining Italiyada tuzgan davlatiga qarshi 773-yilda boshlandi. Ispaniyaga qarshi urushda jiyani Ronald vafot etdi, keyinchalik Ispaniyani egallab ispan markasi chegara viloyatini tuzadi. Karlning sakslarga qarshi yurishi 30yil (772-804) davom etadi. Vaholanki sakslar Karlga bo'ysunmagan so'nggi german qabilasi edi. Karl davlati hududini bimalol G'arbiy Rim imperiyasiga taqqoslasa bo'lar edi. 800-yili rimda papaga qarshi isyon ko'tariladi, Karl esa qo'shin yuborib uni bostiradi, va buning natijasida papa Lev III 800-yil dekabrda Karlga imperatorlik tojini kiydirdi. Shu kundan e'tiborandavlat imperiya deb atala boshladi. 843-yilda Karlning nabiralari Verden shahrida davlatni 3 qismga Italiya, Fransiya, Germaniya ga bo'lib olishdi.



Karl davrida davlat boshqaruvi: Moliya, soliq, harbiy a'yonlari, dasturxonchi, otxona boshlig'i va boshqalar Franklar davlatidagi muhim lavozimlardan hisoblangan. Yirik qabilalarni gersoglar (nemischa, saylangan harbiy yo'lboshchi, keyinchalik merosiy qabila boshlig'i) boshqargan. Davrlar o'tib gersog eng yuksak unvonlardan biriga aylandi. Yirik bo'lmagan hududlarni imperator tayinlagan graflar (nemischa, qirol tayinlagan amaldor) boshqargan. Gersog unvoni avvaldan merosiy bo'lsa, graflarni imperator tayinlagan. Buyuk Karl o'z davlati chegaralarini mustahkamlash maqsadida markalar (nemischa, chegara harbiy viloyati) tuzib, ularni markgraflar (nemischa, chegara viloyati hokimi) boshqargan. Yepiskoplar, yirik monastirlar abbatlari imperatorning joylardagi vakillari sifatida uning buyruqlarini bajargan. Safarlari paytida Buyuk Karl yepiskoplar va graflarning ishlari qanday ketayotganligini tekshirgan. Agar suiiste'molliklar aniqlansa, javobgar darhol lavozimidan ozod etilgan. Imperatorning o'zi barcha graflik va yepiskopliklarni aylanib chiqishi qiyin ekanligidan u o'zi ishongan davlat vakillarini mamlakat bo'ylab jo'natar edi. Ularga mahalliy hokimlarni jazolash, almashtirish huquqlari berilgan. Franklar mamlakatining hududlari behad katta bo'lishi nazoratni murakkablashtirgan. Barcha grafliklarni nazoratda saqlash mushkul edi. Bundan tashqari, graflar bor kuchi bilan graflikda o'rnashishga, uni o'z avlodlariga meros qilib qoldirishga intilgan. Bu esa franklar imperiyasini kelajakda zaiflashuvi va parchalanishiga yo'l ochib bergan.

Madaniyat: Karl davrida xalq maktablari joriy etilib, unda ruhoniylarga oddiy xalq farzandlarini bepul o'qitish buyurilgan. Uning davrida saroy akademiyasi tashkil qilinib, turli fanlarga oid kitoblar yozilgan. Akademiyada faoliyat yuritgan tarixchi Eyngardni "mehnatsevar chumoli" deya ta'riflashganlar. Akademiya rahbari Alkuin hisoblangan.

Xulosa

Yevropa hukmdorlari orasida katta hurmatga ega bo'lgan Karl saroyiga ko'plab elchilar kelib turishgan. Yilnomalarda yozilishicha, arab xalifasi Horun ar-Rashid o'z



elchilari orqali Karlga qimmatbaho sovgʻalar bilan birga Quddusdagi Iso paygʻambar qabri joylashgan yerni ham taqdim etgan. Franklar imperiyasining inqirozi. Yillar oʻtib mamlakatda graflar davlat amaldorlaridan — yirik yer egasi, oʻz viloyatining xoʻjayiniga aylana borgan. Graflikdagi erkin dehqonlar qaramlikka tusha boshlagan. Qirolning sud ishlarini boshqarishni graflarga topshirishi ham ularning hokimiyatini kuchaytirib yuborgan. Buyuk Karlning vafotidan koʻp oʻtmay, u tuzgan imperiyaning inqirozi boshlanadi. Uning nabiralari davrida mamlakat parchalanib ketadi. Verden shahrida 843-yilda tuzilgan shartnomaga binoan vujudga kelgan qirolliklar oʻrnida, keyinchalik, Fransiya, Germaniya va Italiya davlatlari tashkil topadi. Bu qirolliklarning har biri gersoglik va grafliklarga, ular esa yirik va oʻrta feodal mulklariga boʻlingan. Shu tariqa Yevropada feodal tarqoqlik davri boshlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Oʻ. Salimov “7-sinf jahon tarixi” 2017
2. T.Oʻ. Salimov “jahon tarixi ”
3. edu.uz
4. wikipedia
5. M. Lapasov “jahon tarixi”
6. A. Abduazimov “jahon tarixi Yevropa mamlakatlari V-XV asrlar”